



Ministry of health
of the Republic
of Uzbekistan



Tashkent Medical
Academy



Korea
University

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI,
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI,
KORYO UNIVERSITETI***

***“ATROF MUHIT MUHOFAZASINING DOLZARB MUAMMOLARI VA INSON
SALOMATLIGI”***

xalqaro ishtirok bilan Respublika 9- ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

*Collection of scientific papers of the 9th republican scientific-practical conference with
international participation*

***"IMPORTANT PROBLEMS OF THE ENVIRONMENTAL PROTECTION AND HUMAN
HEALTH"***

*Сборник научных трудов 9-ой республиканской научно-практической конференции с
международным участием*

***«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЗДОРОВЬЕ
НАСЕЛЕНИЯ»***



Toshkent-2022, 16-noyabr

MUNDARIJA
MAQOLALAR

1. <i>Абдрахманов Қ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА</i>	9
2. <i>Амирсеитова Ф.Т., Жунисали Н.К., Мусина А.А., Сулейменова Р.К. ВЛИЯНИЕ АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА НА БОЛЕЗНИ ОРГАНОВ ДЫХАНИЯ.</i>	14
3. <i>Бижанов Б.Б., Ерденова Г.К. ВЛИЯНИЕ СОСТАВА ПИЩЕВЫХ КОМПОНЕНТОВ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕРЕВАРИВАНИЯ БЕЛКОВ ПИЩИ В МОДЕЛЬНЫХ ОПЫТАХ.</i>	17
4. <i>Бомштейн Н.Г.: Сааркоппель Л.М., Серебряков А.В., Федина И.Н., Панкова В.Б. АПРИОРНЫЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ РИСК РАБОТНИКОВ УРАНОДОБЫВАЮЩИХ ПРОИЗВОДСТВ</i>	22
5. <i>Гайсина М.М., Зейнолдина А.С. ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА НА ЗДОРОВЬЕ ГОРОДСКОГО НАСЕЛЕНИЯ КАЗАХСТАНА (г. АСТАНА)</i>	25
6. <i>Зейнолдина А.С., Мырзагалиева А.М. ИЗМЕНЕНИЕ КЛИМАТА И ВЛИЯНИЯ НА ЗДОРОВЬЕ</i>	28
7. <i>Зхабитай З.Б. SOURCES OF POLLUTION OF SURFACE AND UNDERGROUND WATERS. THE INFLUENCE OF ENVIRONMENTAL WATER POLLUTION ON VARIOUS TYPES OF WATER TREATMENT.</i>	31
8. <i>Ибраимова Х.Р. ИЧАК ПАРАЗИТАР КАСАЛЛИГИ ТАШҲИСЛАНГАН БОЛАЛАР ВА КАТТА ЁШЛИЛАР ОРГАНИЗМИ ИММУН СТАТУСИ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ НАТИЖАЛАРИ.</i>	33
9. <i>Исакова Н.Р. БОЛАЛАРДА УЧРАЙДИГАН ЙЎФОН ИЧАК КАСАЛЛИКЛАРИНИНГ АНТРОПОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРГА ТАЪСИРИ.</i>	36
10. <i>Искандарова Г.Т., Манасова И.С. ХАРАКТЕРИСТИКА МИКРОКЛИМАТА ЗЕРНОПЕРЕРАБОТЫВАЮЩИМ ПРОИЗВОДСТВЕ</i>	39
11. <i>Искандарова Г.Т., Ташпулатова М.Н., Самизова Н.Р. ФАРМАТСЕВТИКА КОРХОНАСИ ИШЧИЛАРИНИ ИШ КУНИ ХРОНОМЕТРАЖИ</i>	42
12. <i>Исмаилова А.А., Мусина А.А., Ерденова Г.К. РАДИОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СОДЕРЖАНИЯ РАДИОНУКЛИДОВ В ОБЪЕКТАХ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ ТЕРРИТОРИЙ ПРИАРАЛЬЯ</i>	43
13. <i>Мингазов И.Ф., Новикова И.И., Герасимова Э.В., Стрельченко О.В., Чернышев В.М. АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОКАЗАТЕЛЯ ОПАСНОСТИ ЗАБОЛЕВАНИЙ</i>	46
14. <i>Молдаязова Л.Т. УРОВЕНЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОСНОВНЫЕ БАРЬЕРЫ ВНЕДРЕНИЯ БЕЗОТХОДНОГО ПРОИЗВОДСТВО В РЕСПУБЛИКЕ КАЗАХСТАН</i>	49
15. <i>Муратбекова А.Т. ГИГИЕНИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА, ВЛИЯНИЕ НА ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ</i>	53
16. <i>Мусина А.А., Ерденова Г.К., Рахметова Б.Т. РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ТУБЕРКУЛЕЗА СРЕДИ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ АКМОЛИНСКОЙ ОБЛАСТИ</i>	56
17. <i>Мустанов Ж.А. СУРҲОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЗООНОЗ ТЕРИ ЛЕЙШМАНИОЗИНИНГ АСОСИЙ МАНБАИ БЎЛГАН КЕМИРУВЧИЛАР ВА УЛАРНИНГ ЭКТОПАРАЗИТЛАРИ</i>	59
18. <i>Нишанов Ю.Н., Юлдашева М.Т., Тиляходжаева Г.Б., Абдулхакимов А.Р., Абдулазизова Ш.А. ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕТЕЙ ВЫСОКОГОРЬЯ И СРЕДНЕГОРЬЯ</i>	62
19. <i>Нурматов Б.Қ., Тошматова Г.О., Айтмуратова Г.А. АТМОСФЕРА ҲАВОСИ ИФЛОСЛАНГАНЛИГИНИНГ БОЛАЛАР ВА ЁСМИРЛАРДА НАФАС АЪЗОЛАРИ КАСАЛЛИКЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШИДАГИ РОЛИ</i>	65



8. СанПин № 0294. II “Гигиеническая оценка содержания вредных веществ при совместном присутствии в атмосферном воздухе”, II Ташкент, 20Н – с 36
9. СанПин № 0324 – 16 “Санитарно-гигиенические нормы микроклимата”, II Ташкент, 2016, с 38
10. Гигиена труда [Электронный ресурс] : учебник / Н. Ф. Измеров, В. Ф. Кириллов - 2-е изд., перераб. и доп. - М. : ГЭОТАР-Медиа, 2016. –

FARMATSEVTIKA KORXONASI ISHCHILARINI ISH KUNI XRONOMETRAJI

Iskandarova G.T., Tashpulatova M.N., Samigova N.R.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Kirish. In’eksion preparatlarni ishlab chiqarishda ishchilarning mehnat faoliyati jarayonida lokal va regional xarakterdagi mushak zo’riqishi, ish jarayoni va moslamalardagi konstruktiv nosozliklar, noqulay mehnat sharoiti bilan birgalikda asab emotsional zo’riqishining yuqoriligi ish faoliyatida samaradorlikning kamayishiga, tez charchashga, umumiy va kasb kasalliklarning sabablarini kelib chiqishiga olib kelishi mumkin [2, 3]. Ishchilarning mehnati ish jarayonining keskinligi, uzoq vaqt davomida diqqat-e’tiborni jamlagan holda ishlash bilan asosiy ishning funksional sifatiga bog’liq bo’lib, ish jarayonida yo’l qo’yilgan xatoliklar ko’plab insonlarning hayotini havf xatarga olib kelishi mumkin. In’eksion preparatlar ishlab chiqarish sexida ishlovchilarni mehnati yuqori keskinligi va jismoniy zo’riqish bilan ishlash, uzoq vaqt davomida tik oyoqda turib ishlash, gavgani oldinga va yon tomonga bukkan holda egilgan holatda turib mehnat qilishdir [5].

Maqsad. Farmatsevtika korxonalarini in’eksion preparatlar ishlab chiqarish sexlarining asosiy kasbdagi ishchilarni ish kunini xronometrajdan o’tkazish va ish kuni dinamikasida mehnat qobiliyatiga gigiyenik baho berish.

Tadqiqot materiallari va usullari. In’eksion preparatlar ishlab chiqarish sexlaridagi mehnat jarayoni bajariladigan ishning og’irligi va keskinligi bilan bog’liq, uni baholash uchun asosiy ish kuni xronometraji o’tkazildi. Ish kunining davomiyligi 8 soatdan iborat bo’lib, tushlik tanaffus esa soat 12:00 dan 13:00 gacha. Ma’lumotlar ishchilarni ish joylarida ish jarayonidan chalg’imagani holda olindi.

Natijalar va muhokama. Farmatsevtika korxonalarini in’eksion preparatlar ishlab chiqarish sexlarida ishlar yuqori darajadagi aqliy zo’riqishlarni talab qilib, natijada chiqarilayotgan maxsulotlarining sifatiga ta’sir etadi, hamda ishchilarda ko’rish va diqqat e’tiborni jamlash funksiyasini zo’riqtiradi [1, 4]. Steril eritmalarini tayyorlovchi apparatchi ish joyida ishchilar murakkablik darajasi har xil bo’lgan mehnat faoliyatini amalga oshiradilar, bunda asosiy ishga mashg’ullik vaqti, ish kunining 80% ni tashkil qiladi, qolgan vaqti (14%) yordamchi ishlarni bajarishga sarflansa (hom ashyoni tashish, idishlardan bo’shatish, saralash va taqsimlash, b.q.), ishsiz turish vaqti texnik sabablar bo’yicha 1,7% va tashkiliy sabablar bo’yicha 2%, diqqat-e’tiborning chalg’ishi 2,3% dan iborat bo’ldi.

Ish kunini tashkil qilish tarkibi bo’yicha kesish va kimyosuvtozalash apparatchigining vazifasi muhim o’rin tutadi. Mazkur ishchining asosiy mehnat faoliyatini amalga oshirishda ish kunining 80% vaqti band qilinsa, 12% vaqti yordamchi ishlarga sarflanadi. Ishsiz turish vaqti texnik sabablar bo’yicha 5%, tashkiliy sabablar bo’yicha 3% dan iborat bo’ladi.

Ampulalarni ichki va tashqi qismlarini issiq suv yuvib, so’ngra suv qoldiqlari ampulalardan so’rib olinadi. Shundan so’ng, quritish shkafiga joylashtirilib ampulalar to’liq quritiladi. Yuqorida bayon qilingan faoliyatlarni amalga oshirish uchun ampula va idishlar yuvuvchisi ish kunining 81% dan ortiq vaqti sarflanib, qolgan vaqtni (14%) turli yordamchi ishlar band qiladi. Ular: ampulalarni saralash, nuqsoni bor ampulalarni chetlatish va boshqalar. Tashkiliy sabablar bo’yicha ishsiz turish vaqti 2%, diqqat-e’tiborni chalg’ishi 3% ni tashkil etdi.

Preparatlarni ishlab chiqarishda asosiy kasblardan yana biri ampulalarni to’ldiruvchilar hisoblanadi. Dori eritmalarini ampulalarga to’ldirishda 80% vaqtini asosiy ishga ajratilsa, 16% vaqti



esa ampulalarga dori eritmalari to‘liq quyilganligini nazorat qilish va ampulalarni saralashga yo‘naltiriladi. Texnik sabablar bo‘yicha ishsiz turish vaqti va diqqat-e’tiborning chalg‘ishi umumiy 4% ni tashkil etdi.

Kavsharlovchi va sterillovchi kasbiy guruh ishchilari dori eritmalari bilan to‘ldirilgan ampulalarni muhrlash mashinasida muhrlanaydilar, shundan so‘ng sterilizatsiya qilish uchun ampulalar avtoklavga joylashtiriladi. Avtoklavdan chiqqan ampulalar issiq tuzsizlantirilgan suv bilan yuviladi va germetikligi tekshiriladi, ushbu vazifalarni bajarish uchun ish vaqtining 80% ini sarflaydilar, qolgan 12% vaqti esa, ampulalarni sanash, yaroqsizlarini chetlashtirish, saralash kabi qo‘shimcha ishlarni bajarishga ketadi. Shu bilan birga vaqtini bekorga o‘tkazish texnik sabablar bo‘yicha 2% va tashkiliy ishlar bo‘yicha 4% bo‘lib, u foydalanilayotgan asbob va jixozlar bilan bog‘liqdir. Boshqa narsalarga chalg‘ishga 2% dan iboratdir.

Texnologik jarayon bo‘yicha keyingi vazifalarni nazortachi va qadoqlovchilar bajaradilar. Bu jarayonda dori eritmalari bilan to‘ldirilgan ampulalar ko‘rish stollariga yuboriladi, u yerda ampulalar mexanik qo‘shimchalarga vizual tekshiriladi, So‘ngra ampulalar qadoqlanib, markirovka qilinadi, buning uchun ish vaqtining 76% sarflanadi, qo‘shimcha ishlarni bajarishga 15% vaqt sarflanadi. Bu jarayonda ishchilar qisman dam oladi, gavgani “turgan” holatini “o‘tirish” holatiga almashtiradi, xarakatlanadi va sex bo‘ylab xamkasblari bilan muloqatda bo‘ladi. Tashkiliy sabablar bo‘yicha ishsiz turishga ish kunining 6% band bo‘lsa, diqqat-e’tiborning chalg‘ishi 3% ni tashkil etadi.

Xulosa. Shunday qilib, farmatsevtika korxonalarining in’eksion preparatlar ishlab chiqarish sexlari asosiy guruh ishchilarining ish vaqtini xronometrajdan o‘tkazish natijalari o‘rganilayotgan korxonalaridagi ishchilarning mehnat jarayonini og‘irligi va keskinligini baholashga asos bo‘ladi. Mehnat qobiliyatining dinamikasi shuni ko‘rsatdiki, ishchilar bosqichma-bosqich operatsiyalarni bajarishni boshlaganlaridan so‘ng, mehnat qobiliyati soat 10:00 va 11:00 larda ortganligi, soat 12:00 ga kelib esa kamayganligi kuzatildi. Tushlik tanaffusdan so‘ng, soat 15:00 va 16:00 ga kelib, operatsiyalarni bajarishga ketgan vaqtning davomiyligi kamaygan bo‘lsa, soat 17:00 ga kelib mehnat qobiliyatini sezilarli darajada tushganligi namoyon bo‘ldi. Bu holat ishlab chiqarishda charchashning yuzaga kelishidan darak beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишеров Т.А., Ташпулатова М.Н. Замоновий фармацевтика корхоналарида меҳнат гигиенаси муаммолари // “XXI асрда илм-фан таракқиётининг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг тутган ўрни” мавзусидаги республика илмий 10-онлайн конференцияси материаллари. - Тошкент, 2019. - № 10. - Б. 45-46.
2. Бехбутова М.Д. Гигиенические аспекты условий труда работников на фармацевтических производствах // Молодой ученый. - 2017. - №. 1-2. - С. 21-22.
3. Искандарова Г.Т., Ташпулатова М.Н. Фармацевтика корхонаси ишчиларининг юрак кон-томир тизими функционал ҳолатининг хусусиятлари // “Аҳоли саломатлигини муҳофаза қилишнинг замонавий ютуқлари ва ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги III халқаро илмий-амалий онлайн анжуман. - Тошкент, 2021. - Б.353-354.
4. Искандарова Г.Т., Ташпулатова М.Н., Самигова Н.Р. Саноатнинг фармацевтика соҳасида меҳнат жараёни ва меҳнат шароитларини ташкиллаштиришни ўрганишнинг аҳамияти // O‘zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi: ilmiy-amaliy tibbiyot jurnali. - 2020. - №2. - Б.59-62.
5. Ташпулатова М.Н. Вопросы изучения гигиенических особенностей условий труда на современных фармацевтических предприятиях // International scientific review of the problems of natural sciences and medicine. - Boston, 2019. - С. 47-52.

←—————→

РАДИОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СОДЕРЖАНИЯ РАДИОНУКЛИДОВ В ОБЪЕКТАХ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ ТЕРРИТОРИЙ ПРИАРАЛЬЯ

Исмаилова А.А., Мусина А.А., Ерденова Г.К.

